



“TASDIQLAYMAN”

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza
qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot
instituti

S. Buriyev
S. Buriyev

2022-yil “29” *aprel*

TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ
(Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga e’lon joylashtirish to’g’risida)

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ekolog” faxriy unvonini ta’sis etish to’g’risida”gi Qonuni, “Tabiat himoyachisi” ko‘krak nishonini ta’sis etish to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi, “Yashil makon” elektron platformasini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi xodimlari mehnatini moddiy rag‘batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish to’g’risidagi buyruq va nizom loyihalarini tayyorlash bo‘yicha e’lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga joylashtiriladigan tanlash shartlari
va hujjatlari bo‘yicha e’lon matni**

Tanlashga qo‘yilayotgan xizmatlar turi:

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ekolog” faxriy unvonini ta’sis etish to’g’risida”gi Qonuni;

“Tabiat himoyachisi” ko‘krak nishonini ta’sis etish to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi;

“Yashil makon” elektron platformasini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi;

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi xodimlari mehnatini moddiy rag‘batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish to’g’risidagi buyruq va nizomi loyihalarini yuridik-texnik jihatdan tayyorlash.

Tanlash ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar:

1. Normativ-huquqiy va boshqa tUSDagi hujjatlar loyihalarini, faxriy unvon va ko‘krak nishoni tavsiflari, chizmalarini “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;

2. Normativ-huquqiy hujjatlar, boshqa huquqiy va boshqaruv hujjatlari loyihalarini tayyorlash, ularni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va tahrir

qilish sohasida kamida 3 yillik tajriba hamda malakali huquqshunos xodimlar bazasiga ega bo'lish;

3. G'olib chiqqan tashkilot ("Bajaruvchi") tomonidan tegishli hujjatlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha buyurtmalar unga taqdim etilgan kundan boshlab yigirma kun muddat davomida loyihalar matnini, faxriy unvon va ko'krak nishoni tavsiflari, chizmalarini to'liq tayyorlab berish va ish yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar yuzasidan "Buyurtmachi"ga hisob-faktura topshirish;

4. Tanlash ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik xususida ariza taqdim etish;

5. Tanlashda g'olib chiqqan tashkilot (korxonalar) bilan Ilmiy-tadqiqot instituti o'rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko'zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;

6. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 5 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, ariza, kafillik xati, tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumot, uning moliyaviy holati haqida ma'lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval.

Ko'rsatiladigan xizmatlarning umumiy tavsifi:

T/r	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari nomi	Ko'rsatiladigan xizmatning umumiy narxi
1	O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvonini ta'sis etish to'g'risida"gi Qonuni	22 000 000
2	"Tabiat himoyachisi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi	21 000 000
3	"Yashil makon" elektron platformasini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda nizomi	21 000 000
4	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi xodimlari mehnatini moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi buyruq va nizomi	16 000 000

Buyurtmachi nomi: O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.

Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor S.Buriyev Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a-uy. STIR: 305 028 989

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: loyihalarni tayyorlash bo'yicha buyurtma berilgan kundan boshlab yigirma kun.

Tanlov o'tkazish manzili: Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a-uy.

Boshlanish muddati: 28.04. 2022-yil

Tugallanish muddati: 6.05 2022-yil

Takliflarni topshirishning oxirgi muddati: 2022-yil 6-may.

Takliflarni topshirish manzili: Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi, 7a-uy. Telefon: (71) 277-89-22.


Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

• Tannarx, muddat, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e'lon shartlariga to'liq ravishda muvofiq bajarish muddati.

• Komissiya tomonidan xizmat ko'rsatish sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq boshqa holatlar ham mezon sifatida baholanadi;

• Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlash g'olibi aniqlanadi.

Ekologik me'yorlashtirish va ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish bo'limi boshlig'i



Sh.Kamilov